



LEKSIKOLOGIYANING HAMKOR SOHALARI

Sevinch Nu'monova,
Qarshi davlat universiteti
Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola sizga leksikologiya, uning mazmuni, tarkibiy qismlari haqida ma'lumot beruvchi kichik bir manbadir.

Kalit so'zlar: leksikologiya, leksika, so'z, semasiologiya, frazeologiya, leksikografiya, onomasiologiya, etimologiya, onomastika, frazema, frazeologizm.

“Leksikologiya (ot. grekcha lexikos—so'zga oid va logos—ta'limot) tilning lug'at tarkibini, leksikasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi. Leksikologiyaning o'rganish manbai – so'z” [4, B.83]. So'zni o'rganish jihatdan leksikologiya bir necha tarkibiy qismlarga bo'linadi. Semasiologiya, leksikografiya, onomastika, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya kabi bo'limlar leksikologiyaning tarkibiy qismlaridir. Bu tarkibiy qismlarning har biri o'ziga xos mazmun- mohiyatga ega. Ular haqida chuqurroq bilimga ega bo'lish uchun esa ta'riflar bilan bir qatorda misol va namunalarni ko'rib o'tish joiz.

“Semasiologiya (yunoncha. semasia—ma'no, mazmun va logiya...)—1) tilning, til birliklarining hissiy idrok qilinadigan tomoniga, tovush, akustik yoki grafik ko'rinishiga qarshi qo'yiladigan ma'no tomonini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi; 2)leksik unsurlar—morfema va so'zlarning mazmuni haqidagi fan, shu ma'noda, leksikologiya bilan muvofiq bo'ladi. Ba'zi hollarda, semasiologiyani faqatgina ichki so'z yasalishi bilan chegaralab qo'yadilar. Biroq u bu holatda etimologiya bilan ham bog'liq bo'ladi va so'zlarning ko'chma ma'nolari (hosila ma'no), shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (omonim, sinonim, antonim, paronimlar) semasiologiyaning obyekti bo'lib xizmat qiladi” [8, B.233]. Tilning hissiy idrok qilinadigan tomoni—sinonimlar (ozod, erkin, hur, sərbast); tovush, akustik tomoni—paronimlar (adib-adip, tanbur-tambur, asl-asil); grafik ko'rinishiga qarshi qo'yiladigan ma'no tomoni—omonimlar (un—oziq-ovqat mahsuloti, un—ovoz, un—o'smoq).

“Onomasiologiya narsa va hodisalarga nom berish jarayonini o'rganadi” [1, B.96]. Namlash jarayoni bevosita predmet va hodisalarning tarixiy ildizlari yoki vazifasiga aloqador sanaladi.

Tilning paydo bo'lish taraqqiyoti mavzusida ham narsalar va ularning nomlari xususida yunon olimlarining bahslariga guvoh bo'lganmiz.

“Demokrit va uning tarafdorlari tilda narsa bilan narsa orasida hech qanday bog'lanish yo'q, bu nomlar mazkur tilda gaplashuvchi odamlar tomonidan yaratilgan,



degan fikrni ilgari surishgan. Bu guruh olimlar anomalistlar deb nom olgan. Platon boshliq boshqa bir guruh olimlar narsa bilan uning nomi orasida muayyan bog‘lanish bor. Bu bog‘lanish narsaning xususiyatidan, tabiatidan kelib chiqqan va bu bog‘lanish ilohiy kuch tomonidan o‘rnatilgan, degan fikrni ilgari surishgan. Tarixda bu oqim analogistlar deb nom olgan” [1, B.10].

“Onomastika (yunoncha. opot-ism, onomastikos-ismga bog‘liq) tilshunoslikda otlar, ularning tarixi tilda qo‘llanilishini o‘rganadi. Asosiy birligi so‘z, gap ham bo‘lib kelishi mumkin. O‘zbek tilidagi nominativ gaplar bunga misol bo‘la oladi. Bu turdagi gaplar voqea-hodisalarning mavjudligini tasdiqlab, gapga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi” [6]. Onomiya turli xos nomlarga bo‘linadi:

1) antroponimiya – odamlarning ismini ilmiy jihatdan o‘rganadi. Masalan: juma kuni tug‘ilgan qizlarga—Jumagul; ramazon oyida tug‘ilganlarga – Ramazon; to‘rtinchi farzandga—Robiya; safarlarda tug‘ilganlarga—Safar, Yo‘lchi; tana a‘zolarida xoli bo‘lsa—Xolida, Xolmo‘min; nori bo‘lsa—Nortoy, Anora; ta‘nasida ortiqcha qismi bo‘lsa—Ortiq yoki, aksincha, kamroq bo‘lsa—Kamol, Kamola; tilab-tilab kutilgan farzandga—Xudoyberdi, Tilovberdi; farzandi vafot etaversa—Tursun, Ko‘paysin kabi ismlar qo‘yiladi;

2) toponimika – geografik nomlarni o‘rganadi. Masalan: To‘rtko‘lda to‘rtta ko‘l mavjud; Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo hududlarida daryolar bor; Qoramergan qishlog‘idan mashhur mergan o‘tgan; Kitob (kifti ob—2 yelkasi suv)—daryolari ko‘p bo‘lganligi uchun shunday nomlar bilan atalgan;

3) etnonimika – millatlarning nomlarini o‘rganadi: qirg‘iz, o‘zbek, uyg‘ur, tojik, fransuz, yapon va hokazolar.

“Xalq og‘zaki ijodidagi, jumladan, “Manas” dostonidagi onimlar—qimmatli madaniy, tarixiy yodgorlik. Olimlar fikriga ko‘ra, bu dostonida ko‘plab xalqlar (qabila, urug‘, elat) turli real voqealarni boshidan kechirgan va asar o‘ziga xos otlarga boy. “Manas” trilogiyasidan qirg‘izlarga xos barcha tarmoqlarni bilib olish mumkin, undagi toponimlar(Olti-O‘zen, Jet-Kait, Qaynar-Kashat, Kabakart, Oro- To‘be, Teniz-Nur), antroponimlar(Oq-bolta, Basangqul, Dandan, Oshpur, Tobotoy, Tokotoy, Un-duchak), etnonimlar (alchin, katagan, targ‘in, tirk‘ot, uysun, shiytu, ezet)” [3 B.440].

“Etimologiya (haqiqat va ta‘limot)—1)so‘z va morfemalarning kelib chiqishini o‘rganadigan bo‘lim; 2)so‘zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui; 3)so‘zning kelib chiqishi 19-asr tilshunosligida “etimologiya” termini “grammatika” ma‘nosida ham qo‘llangan. Bu soha yasama, qo‘shma va xorijiy tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlar ma‘nolari bilan ham qiziqadi. Etimologiya



soʻzning ham shaklini, ham maʼnosini hisobga oladi. Tilshunoslikning bir boʻlimi hisoblangan etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiy manbalarni hamda til lugʻat takibining shakllanish jarayonini va uning qadimiy holatini tiklashdan iborat. Maqsadi esa soʻz qachon, qaysi tilda, qanday yasaliş qolipi boʻyicha, qaysi til materiali asosida qanday shakl va maʼnoda qanday paydo boʻlganini aniqlashdir. Etimologik tahlilning asosiy metodi qiyosiy-tarixiy usul boʻlib, u fonetik qonuniyatlar, morfologik qoidalar, oʻzgarishlarga tayanib ish koʻradi. Oʻzlashma soʻzlar etimologiyasini aniqlash unchalik qiyin emas. Masalan, hozirgi oʻzbek tilidagi “daftar”, “piyola”, “qalam” soʻzlari yunon tiliga mansubligi va oʻsha tildagi maʼnosini aniqlash uchun leksikografik izlanish—arab, fors, yunon lugʻatlarini solishtirish kifoya qiladi. Biroq “juda qadimiy” maʼnosidagi “daqyanusdan qolgan” iborasining etimologiyasini aniqlash uchun din tarixidan, Qurʼoni Karimdagi “Kahf surasi” dan, Rim imperiyasi tarixidan xabardor boʻlish kerak. Etimologiyaning ilmiy etimologiya, soxta etimologiya va xalq etimologiyasi kabi turlari mavjud. Ilmiy etimologik tahlil til tarixi, lahja, shevalar va faktlarni qiyoslash orqali yuzaga keladi. Masalan, hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanayotgan payt maʼnosini bildiruvchi *tunovgi*—*tunovkun*—*tunovin* soʻzlari uch tarkibiy qismdan iborat boʻlib, “*tun ogʻgan kun*” shaklida qoʻllangan demak, yuqoridagi sinonimlar, yaʼni “*tunovin*”, “*tunovgi*” soʻzlari *oʻtgan kun*, *burnogʻi kun*, *kechadan oldingi kun* maʼnolarini emas, balki *kecha*, *tun ogʻgan kun* maʼnosini ifodalagan.

Soxta etimologiya eskirgan yoki oʻzlashma soʻzning morfologik tuzilishini va boshqa xususiyatlarini notoʻgʻri tushunish natijasida yuzaga keladi. Masalan, “*meditsina*” soʻzini “*madadi Sino*” tarzida ajratib, Ibn sino nomi bilan bogʻlash.

Xalq etimologiyasi esa soʻz maʼnosini aniq faktlarga asoslanmagan holda faqat tovush tomonining tasodifiy oʻxshashliklariga qarab, afsona va rivoyatlarga tayanib izohlash” [5 B.9].

“Frazeologiya tilshunoslikning bir boʻlimi boʻlib, u tilning lugʻat tarkibidagi frazemalarni oʻrganadi. Frazema koʻchma maʼnoli turgʻun birikmadir. Masalan, zoʻraymoq (leksema)-avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema)-azob chekmoq (frazema)” [2 B.216].

Frazelologiyaning lugʻaviy maʼnosiga toʻxtaladigan boʻlsak, grek tilidagi ikkita soʻzdan “*phraseos*”- ifoda va “*logos*” soʻzlaridan tashkil topgan.

“Birdan ortiq mustaqil leksema koʻrinishining birikuvidan tashkil topib obrazli maʼnaviy tabiatga ega boʻlgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turgʻun birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamallari bilan ham yuritiladi” [4 B.129].



“Frazeologizmlarning qo‘llanilishiga ko‘ra turlari:

- erkirgan iboralar: “alifni kaltak demoq”, “kallasini xam qilib”, “yeng silkitmoq”;
- dialektal iboralar: “alag‘da bo‘lmoq-xavotir olmoq”, “ko‘ngli tob tashladi – ezildi”, “halok bo‘lmoq-ovora bo‘lmoq”;
- ilmiy iboralar: “nazar tashlamoq”, “chambarchas bog‘lanmoq”, “qulay qurshov”;
- badiiy ibora: “sabr kosasi to‘lmoq”, “og‘zidan bodi kirib, shodi chiqmoq”, “six ham kuymasini, kabob ham”;
- so‘zlashuv nutqi iboralari: “ko‘zi tor”, “arpasini xom o‘rmoq”, “yerga urmoq” [4 B.130].

“Leksikografiya (grek. lexikos-so‘z, so‘zga oid va grapho-yozaman) yoki lug‘atchilik deyiladi. Tilshunoslikning bu bo‘limi—lug‘at tuzish bilan shug‘ullanuvchi va lug‘at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi soha” [4 B.133].

Anatol Fransning yozishicha, “lug‘at—alfavit tartibida joylashtirilgan voqelikdir”.

Lug‘atlarning turlari:

- 1) izohli lug‘at—bir tilli bo‘lib, lug‘atdagi so‘zlarga bir tilda izoh beriladi. Bunday lug‘atlarga “Oxford Dictionary”, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va boshqalar kiradi.

“Masalan: o‘zbek tilidagi “shuur” – (arabcha-anglash, sezish, tushuncha) Shoirlarda zehn va shuur o‘tkir, xayol dengizi esa teran bo‘ladi” [7 B.10];

- 2) tarjima lug‘ati—ikki yoki undan ortiq tilli bo‘lib, unda biror tilga oid so‘z va iboralar ikkinchi (uchinchi va hokazo) tilga tarjima qilinadi. Bunday lug‘atlarga “o‘zbekcha-ruscha lug‘at”, “ruscha-o‘zbekcha lug‘at”, “inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha” kabilarni kiritishimiz mumkin. Masalan: “inglizcha-o‘zbekcha” communication – noun [kemju:ni‘kei n]

1) aloqa, muloqot, suhbat, fikr almashish, gaplashish, muomala;

2) communications (plural) – aloqa, axborot almashinuvi;

3) qatnov;

4) xat yoki qo‘ng‘iroq xabar.

O‘zbekcha-inglizcha:

kun tartibi (ot.) – agenda (noun.) [edjende];

- 3) imlo lug‘at—lug‘atdagi so‘zlar va iboralarning izohi ham, tarjimasini ham bo‘lmaydi. Bu lug‘at so‘zlarning yozilishini, imlo qoidalarini o‘z ichiga oladi. Imlo lug‘atlariga misol tariqasida “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, “Орфографический словарь русского языка” va boshqalarni keltirish mumkin.

“Masalan: “d”



dub-durust dublyaj dudburon duet dukullamoq duoyi bad
dupur-dupur dumba-jigar dup-durust duxovka” [10 B.66-67].

Imlo lug‘ati asos va qo‘shimchalar imlosini, bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosi, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish va shu kabi qoidalarni ham o‘z ichiga oladi.

4) maxsus lug‘at – fan va texnikaning ma‘lum bir yo‘nalishiga, tarmog‘iga bag‘ishlangan bo‘lib, u ham izohli, ham tarjima lug‘ati bo‘lishi mumkin. “Ruscha-o‘zbekcha matematik terminlar lug‘ati”, “Англо-русский железнодорожный словарь” [13], “Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha diplomatik va siyosiy atamalar lug‘ati” shular jumlasidandir.

5) so‘zlarning ishlatilish darajasiga ko‘ra lug‘ati. Izohli, tarjima, imlo lug‘atlar alfavit tartibida tuzilsa, so‘zlarning ishlatilish darajasiga ko‘ra tuziladigan lug‘atlarda so‘zlar tartibi ularning nutqda ishlatilish darajasi bilan belgilanadi. Bunga misol tariqasida, “Частотный словарь русского языка” [12] lug‘atini keltirish mumkin. Bu lug‘at jahon bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, so‘zlardan eng ko‘p ishlatiladiganlari *в(в)* va *во(во)* predloglari, 2-o‘rinni *и(и)* bog‘lovchisi, 3-o‘rinni *не (не)* inkori, 4-o‘rinni *на (н)* predlogi, 5-o‘rinni *я (я)* olmoshi egallagan” [8 B.2400].

6) etimologik lug‘at – so‘zlarning kelib chiqish tarixini tushuntirib, izohlab beradi. Masalan: “Толковый словарь живого велико-русского языка” [11].

Xulosa: Leksikologiyaning har bir tarkibiy qismi hayotga tatbiq etiladigan sohalardandir. Kundalik nutqimizda foydalanadigan so‘zlarimizning mazmum-mohiyatini, kelib chiqishini bilish – bugungi kun talabi. Chunki inson haq-huquqlari himoyasi kafolatlangan bir zamonda ma‘nosi anglanmay aytilgan birgina so‘z tufayli turli xil jarimalar, ba‘zan esa ozodlikdan mahrum etish jazolari tayinlanmoqda.

Ijobiy tarafiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, so‘zlashuv jarayonida iboralardan foydalanish nutq jozibasini, ta‘sirchanligini oshiradi. Shaxslar, hududlar va narsalarga nom berish hodisasi esa o‘ta ahamiyatli. Zeroki, tanlangan nomlar orqali kishilar, predmetlar va boshqalarning fe‘l-atvori, belgi-xususiyatlarini osongina anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammadabbos Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. –Yangi asr avlodi, 2009. –263b.
2. Hasanxon Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent “Talqin”, 2005. –271b.
3. “Manas” ensiklopediyasi. –Qirg‘iz ensiklopediyasi bosh tahririyati, 1995. – 2jild.
4. Ra‘no Sayfullayeva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009. –414b.
5. Эрванд Севортян. Этимологический словарь тюркских языков. –Тошкент, 1974-84. –768с.
6. Uz.m.wikipedia.org.



7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. Beshinchi jild. –589b.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent, 2000. –23469b
9. Shavkat Rahmatullayev. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. –Toshkent, 2000. –600b.
10. Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyev. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. –Toshkent “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020. –528b.
11. Владимир Иванович Даль. Толковый словарь живого великорусского языка. – 1819.
12. Ляшевская О.Н., Шаров С.А. Новый частотный словарь русской лексики. М.:Азбуковник, 2009.
13. Пронина Р.Ф., Бегун А.И., Волкова Н.С., Мощук Е.И., Фукс Е.А., Холчева А.С. Англо-русский железнодорожный словарь. –Москов, 1958.

